



## TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Gadoymurodova Madina Asror qizi  
Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
1-kurs magistranti

madinagadoymurodova1@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18257424>

### ARTICLE INFO

Received: 31<sup>st</sup> December 2025

Accepted: 11<sup>th</sup> January 2026

Published: 14<sup>th</sup> January 2026

### KEYWORDS

*pedagogik texnologiya, ta'lim sifati, innovatsiya, interfaol metodlar, AKT, kompetensiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning samaradorlikka ta'siri hamda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida yangi yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion ta'lim shakllaridan foydalanish tajribalari o'rganiladi.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini ilg'or tajribalar asosida tashkil etish, o'qituvchilar kasbiy salohiyatini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bu – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham o'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlar asosida faoliyat yuritishlari zarurligi ta'kidlanadi. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalarni chuqur o'rganish, ularni dars jarayoniga tatbiq etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirish eng muhim vazifalardan biridir.

### Asosiy qism.

Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogic faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. "Pedagogik texnologiya" atamasi o'z mohiyatiga ko'ra, ta'lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash, amalga oshirish va baholash tizimini anglatadi. Ya'ni, bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni samarali tashkil etuvchi, maqsadga yo'naltirilgan, natijaga erishishni kafolatlovchi usullar majmuasidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Interfaol o'qitish usullari ("Aqliy hujum", "Insert", "Klaster", "Blits-so'rov", "B-B-B", "Baliq skleti");
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimedia, taqdimotlar, onlayn ta'lim platformalari);
- Modulli o'qitish;
- Muammoli o'qitish;
- Kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etish;
- Loyiha asosida o'qitish va boshqalar.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quv jarayonida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

1. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi.

2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi.
3. Ta'limning samaradorligi oshadi.
4. Ijodkorlik va yangilikka intilish kuchayadi.
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi.
6. O'quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlashi oshadi
7. O'quvchi bilan birgalikda o'qituvchilarning yaratuvchanlik malakalari shakllanib boradi.
8. O'qituvchi faoliyatida tizimlilik va aniq rejalilik vujudga keladi;
9. Baholashda natijaga yo'naltirilganlik tamoyili shakllanadi;
10. Ta'limda sifat va samaradorlik o'rtasidagi muvozanat ta'minlanadi

O'qituvchi zamonaviy ta'lim jarayonining markaziy shaxsidir. Uning pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlashi va samarali qo'llay bilishi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda o'qituvchining darslarni integratsiyalash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi pedagogik faoliyat jarayonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi

Bugungi o'qituvchi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur: axborot-kommunikatsiya savodxonligi, ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llay olish, interfaol darslarni tashkil etish mahorati, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish, ta'lim jarayonini monitoring va tahlil qilish ko'nikmalari. Raqamli ta'lim vositalari – bu zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng muhim qismi. Ular o'quv jarayonini interfaol, jonli va oson o'zlashtiriladigan holga keltiradi.

Masalan: Google Classroom, Moodle, Zoom, Quizizz, Kahoot kabi platformalar o'quvchilar faoliyatini kuzatish va baholashda qulaylik yaratadi; multimedia taqdimotlari mavzuni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi.

#### **Xulosa.**

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ularning qo'llanilishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday texnologiyalar o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish, dars jarayonini interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, interfaol metodlardan, modulli o'qitish, loyiha asosida o'qitish va muammoli ta'lim kabi yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga jalb etadi. Bu esa ta'lim natijalarining sifat va samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni to'g'ri tanlash va amaliyotda oqilona qo'llash o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi, ularning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu bois, ta'lim tizimida pedagoglarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning kasbiy malakasini oshirish hamda ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning, o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlashning, ta'lim sifatini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Ziyomuhammadov B., To'raqulova M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Xodjaye M. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

4. Mavlonova R., To'xtayev A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
5. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. – Paris, 2018.
6. Hasanov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Samarqand, 2022.
7. N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat . -T.:O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti .2006, 160 b

